

XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIGA INVESTITSIYA JALB QILISHDA RISKLARNI PROGNOZ QILISH

Hazratqulov Shahboz Boboqul o'gli

Mustaqil tadqiqotchi, Qarshi davlat universiteti

E-mail: shahbozhazratqulov@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0006-5600-6251>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17318288>

Annotatsiya: Mazkur maqolada investitsiya risklari va ularning turlari, yuzaga kelish omillari va pasaytirish yo'llari ko'rib chiqilgan. Risklar haqida qisqacha ta'rif berilgan. Investitsiya risklari investorlar va korxonalar uchun moliyaviy xavf-xatarlar, operatsion muammolar, moliya bozoridagi risklar va siyosiy-ijtimoiy o'zgarishlar bilan bog'liqlik ehtimollari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Investitsiya risklari, tizimli va tizimli risk, foiz riski, valyuta riski, moliyaviy xavf-xatarlar, siyosiy risklar, bozor noaniqliklari, bozor riski, moliyaviy xatar.

FORECASTING RISKS WHEN ATTRACTING INVESTMENT IN SERVICE INDUSTRIES

Hazratkulov Shahboz Boboqul ogli

Independent Researcher Karshi State University

E-mail: shahbozhazratqulov@gmail.com

Abstract: This article examines investment risks and their types, factors of occurrence and ways to reduce them. A brief definition of risks is given. The probability of investment risks being associated with financial risks for investors and enterprises, operational problems, risks in the financial market and political and social changes is analyzed.

Keywords: Investment risks, systematic and systemic risk, interest rate risk, currency risk, financial risks, political risks, market uncertainties, market risk, financial risk.

ПРОГНОЗИРОВАНИЕ РИСКОВ ПРИ ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНВЕСТИЦИЙ В СФЕРУ УСЛУГ

Хазраткулов Шахбоз Бобогул оглы

Независимый исследователь

Каршинский государственный университет

E-mail: shahbozhazratqulov@gmail.com

Аннотация: В статье рассматриваются инвестиционные риски, их виды, факторы возникновения и способы снижения. Дано краткое определение рисков. Проанализирована вероятность того, что инвестиционные риски связаны с финансовыми рисками для инвесторов и предприятий, операционными проблемами, рисками на финансовом рынке, а также политическими и социальными изменениями.

Ключевые слова: инвестиционные риски, систематический и системный риск, процентный риск, валютный риск, финансовые риски, политические риски, рыночная неопределенность, рыночный риск, финансовый риск.

KIRISH

Investitsiya hozirgi davrda iqtisodiy rivojlanishning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Davlatlar va xo'jalik yurituvchi subyektlar har doim moliyaviy salohiyatini oshirish, zamonaviy

loyihalarni ishlab chiqish va doimiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun investitsiyaga tayanadi. Globalizatsiya va raqamli transformatsiya sharoitida xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biriga aylangan. Xususan, savdo, moliya, transport, ta'lim, sog'liqni saqlash, turizm kabi sohalarida ko'rsatilayotgan xizmatlar nafaqat ichki talabni qondiradi, balki tashqi investitsiyalarni jalb qilish orqali mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshiradi. Biroq har qanaqa investitsiya faoliyati yoki bu tarmoqlarga investitsiya kiritish bilan bog'liq jarayonlar turli xavf-xatarlar bilan ham yuzma-yuz keladi. Bu turdagi xavf-xatarlar investorlarning moliyaviy resurslarini yo'qotilishiga yoki kelajakdagi kutilgan daromadni olib kelmasligi ehtimoldan holi emas.

Investitsiya risklari turli omillar asosida yuzaga kelishi mumkin. Bu risklar moliyaviy beqarorlik, iqtisodiy tanazzul, bozor noaniqliklari, siyosiy o'zgarishlar yoki huquqiy muammolar yoki harbiy konfliktlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Boshqacha qilib aytilsa, risklar har doim omillar tarkibida mavjud bo'lib, tabiatan ehtimoliy xarakterga ega qonuniyatlar asosida tarqaladi, ularning ta'siri ostida moliya bozori muhitida rivojlanishi shakllanuvchi voqeliklarga bevosita yoki bilvosita o'tadi (ko'chadi). Bunday holat o'z-o'zidan moliya bozoridagi risklar muammosini o'ta dolzarbligini tasdiqlaydi. Raqobat muhitining beqarorligi, siyosiy-ijtimoiy omillar, qonunchilikdagi o'zgarishlar, texnologik omillar – bularning barchasi investorlar uchun tavakkal darajasini oshiradi. Shuning uchun, xizmat ko'rsatish tarmoqlariga investitsiya jalb qilishda risklarni oldindan prognoz qilish, ular yuzasidan to'g'ri qarorlar qabul qilish va minimal darajada yo'qotish bilan ishlash zamonaviy investitsion strategiyaning ajralmas qismidir. Xizmat ko'rsatish sohasidan samarali foydalanish asosida mehnatning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlarini o'rganish bu vazifalarni samarali hal etishdan iborat. Mazkur maqolada xizmat ko'rsatish sohalarida investitsiya jarayonida uchrashi mumkin bo'lgan asosiy risklar o'rganiladi, ularni aniqlash va prognozlash metodologiyasi yoritiladi va ushbu jarayonni optimallashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Risk kategoriyasi iqtisodiy fanlar tizimida nisbatan yangi tushuncha bo'lib, uning fundamental asoslari asosan xorijiy olimlarning tadqiqot ishlarida o'z ifodasini topgan. Mamlakatimiz tarixida sovetlar davrida "risk" so'zi o'sha zamonning ijtimoiy-iqtisodiy tizimiga begona bo'lgan "burjuaviy" tushuncha deb e'lon qilindi. Bu esa zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda risklarni boshqarish, tahlil qilish va baholash usullarini yetarli darajada tadqiq etilmasligiga olib keldi. Ammo, shunga qaramay, hozirgi vaqtda iqtisodiy risklarning ma'lum bir konseptual asoslari ishlab chiqilgan bo'lib, uning turli xil mualliflik ta'riflari, shu jumladan mahalliy ta'riflari paydo bo'ldi.

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda risklarni iqtisodiy kategoriya sifatida tadqiq etishga urinishlar mavjud, biroq ular ifoda etayotgan iqtisodiy munosabatlar uning to'liq ko'p qirrali jihatlarini aks ettirmaydi. Bu urinishlar, asosan, muallifning muayyan tadqiqot sohasi bilan bog'liq bo'lgan bir tomonlama xarakterga ega ishlar hisoblanadi. Masalan, rus olimi R.M.Kachalov iqtisodiy risklarni ishlab chiqarish munosabatlaridagi noaniqlikni bartaraf etish bilan bog'liq bo'lgan murakkab iqtisodiy kategoriya sifatida tadqiq etgan⁵. G.I.Tamoshina iqtisodiy riskning mohiyatini xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy munosabatlari prizmasi orqali tadqiq etadi. Bozor sharoitida risklarni har doim stoxastik, tartibsiz va ehtimoliy bo'ladi deb, ularni ishonchsiz deb ataydi⁶. L.N.Tepman iqtisodiy riskni tadbirkorning qo'shimcha foyda (daromad) olishi uchun takror ishlab chiqarish jarayonida noaniqlik elementi yoki uning alohida lahzalaridan ijodiy foydalanish qobiliyatini ro'yobga chiqarish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatida

kategorik ta'rifini taklif qiladi⁷ I.T.Balabanov⁸ va Ye.S.Stoyanovalar⁹ iqtisodiy riskni iqtisodiy kategoriya sifatida sodir bo'lishi yoki bo'lmashligi mumkin bo'lgan hodisa deb faraz etadilar. Bunday hodisa yuz bergan taqdirda uch iqtisodiy natija, ya'ni salbiy (yo'qotish, zarar, ziyon), nol va ijobiy (daromad, foyda, yutuq)ga erishiladi deb hisoblaydilar. Shuni ta'kidlash kerakki, bu holda tadqiqotchilarning diqqat markazida risk tushunchasi sodir bo'lish ehtimolligi mumkin bo'lgan yoki bo'lmagan hodisaga qaratiladi.

“Risk” ilmiy kategoriya sifatida uzoq tarixiy davrlardan beri ko'plab iqtisodchi olimlarning an'anaviy tadqiqot predmeti bo'lib kelgan. “Tadbirkorlik” atamasining muallifi, ingliz iqtisodchisi Richard Kantilon ilk bor tadbirkorlik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini ifodalashda “risk” konsepsiyasidan foydalangan. Uning fikricha: “tadbirkorni foyda olishi chegaralanmagan va bahosi aniq tovarlarni sotib oladi-yu, lekin sotish bahosi noaniq bo'ladi, u tavakkalchi, taklifni talabga moslovchi” - deb baholaydi¹⁰. Iqtisodiy adabiyotlarda risklarni nazariy jihatdan tadqiq etishda ikki yondashuv mavjud¹¹. Klassik nazariya vakillari (J.S.Mill, N.U.Senior va boshqalar) tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlarni ish haqi va tavakkalchilik uchun to'lovdan tashkil topgan pul shaklida ko'rib chiqadilar. Bu yerda risk zarar bilan tenglashtiriladi.

Risklar nazariyasining yana bir vakili J.M.Keyns kutilayotgan daromadga nisbatan olingan daromad og'ishidagi farqlarni qoplash uchun “xarajatlar riski” tushunchasini kiritish zarurligini asoslab bergan. Iqtisodiy faoliyatda hisobga olinishi lozim bo'lgan uch asosiy risk turlari (tadbirkorlik riski, kredit riski va bozor riski)ni ajratib ko'rsatgan¹².

Pol Xeyne o'zining “Iqtisodiy fikrlash tarzi” asarida, “foйда noaniqlik tufayli yuzaga keladi, ... agarda foyda olishga taalluqli bo'lgan barcha narsalar barchaga ma'lum bo'lganida, ... foyda olishning barcha imkoniyatlaridan to'liq foydalanilgan va natijada foyda barcha yerda nolga teng bo'lgan bo'lar edi” – deb ta'kidlaydi¹³.

Riskni nazariy jihatdan tadqiq etishda “noaniqlik” va “risk” tushunchalari o'rtasidagi bog'lanishni o'rganish muhim o'rin tutadi. Amerikalik iqtisodchi Frenk Xayneman Nayt o'z ishida “noaniqlik” va “risk” tushunchalarini bir-biridan tubdan farq qiladi deb yozadi¹⁴. U riskni miqdoriy baholash mumkin, noaniqlikni esa miqdoriy baholashning imkoni yo'q deb hisoblaydi. Uning fikricha risk – bu miqdoriy baholanadigan noaniqlikdir.

D.N.Ushakov “risk” so'zini bozor kon'yunkturasining o'zgaruvchanligi sababli tijorat faoliyatida yuz berishi mumkin bo'lgan zarar yoki muvaffaqiyatsizlik deb tushunadi¹⁵. Biroq risk tushunchasini lingvistik jihatdan ta'riflash zamonaviy sharoitlarda korxona boshqaruvida uni muhim kategoriya sifatidagi mazmuni va mohiyatini yetarlicha ifoda etmaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida biznesga monand ravishda, tadbirkorlik faoliyatida risklarning iqtisodiy mazmuni yanada kengaydi va ko'p ma'noli, ayrim holatlarda bir-biriga mos kelmaydigan, qarama-qarshi asosga ega bo'lgan tushunchaga aylandi. Xususan, V.V.Cherkasov iqtisodiy adabiyotlarda risklarning 40 dan ortiq turdagi tasniflashgan belgilari va 220 dan ziyod ko'rinishlari farqlanganligini ta'kidlaydi¹⁶.

METODOLOGIYA


Mavzuni ilmiy o'rganish, mantiqiylik, tahlil va tadqiq etish jarayonida tizimli tahlil, statistik tahlillardan foydalanilgan. Maqolada, xizmat ko'rsatish tarmoqlarida investitsiya risklari bo'yicha rivojlanish tendensiyalarini ishlab chiqish va uning iqtisodiy tizimdagi ahamiyatiga mos ravishda ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalar berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalarda risklarni boshqarish alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllangan bo'lib, u tashkilotning xo'jalik faoliyatida vujudga kelishi mumkin bo'lgan

xavflarni tahlil qilish, baholash va samarali boshqarish usullarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Risklarni boshqarishning keng ma'nosi esa xavflarni oldindan aniqlash, ularni baholash hamda minimallashtirish uchun samarali boshqaruv mexanizmlari va vositalarini tanlash jarayonini o'z ichiga oladi.

Bugungi global biznes muhitida risklarni boshqarishning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Korxonalar faqat moliyaviy yoki operatsion risklarni emas, balki texnologik, huquqiy, ekologik va ijtimoiy xavflarni ham hisobga olishlari zarur. Shu sababli, risklarni boshqarish tizimi strategik rejalashtirish, bozor tahlili va raqobatbardoshlikni oshirish kabi omillar bilan chambarchas bog'liq. Risklarni boshqarish tizim sifatida ikkita quyi tizimlardan iborat: boshqariladigan tizim (boshqarish ob'ekti) va boshqarish tizimi (boshqarish sub'ekti). Risklarni boshqarish tizimida risklar, kapitalga xatarli qo'yilmalar va riskli jarayonlarni amalga oshirishda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar (hamkorlar, raqobatchilar; qarz oluvchi va kreditorlar; sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchi o'rtasidagi munosabatlar) boshqarish ob'ekti bo'ladi. Risklarni boshqarish tizimida xodimlarning maxsus guruhi (tadbirkor, moliyaviy menejer, risk menejeri, sug'urta mutaxassislari va boshqalar) boshqarish sub'ektini tashkil etib, turli xil boshqaruv usullari va uslublari orqali boshqaruv ob'ektiga maqsadli ta'sir ko'rsatadi.




1-rasm. Bozor risklari tendensiyasi

2015–2019 yillarda risk indeksi past bo'lgani sababli investitsiya hajmi asta-sekin oshgan.

2020 yildan boshlab, risk darajasi oshgan sari investitsiyalar kamaymoqda. Bu holat pandemiya ta'siri, global iqtisodiy noaniqliklar va ichki tartibga solishdagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Ushbu bog'liqlik shuni ko'rsatadiki: **risk indeksi oshgani sayin investorlar ehtiyotkorlik bilan harakat qiladi va investitsiyalar hajmi kamayadi.**



2-rasm. Xizmat ko'rsatish tarmoqlarida investitsiya hajmi (mlrd so'm)

Xizmat ko'rsatish sohasi bozor iqtisodiyotiga o'tgan mamlakatlar iqtisodiyotida ustuvor o'rinni egallaydi. Xizmatlar bozori tarkibi xizmatlarning yangi istiqbolli turlari - bank-moliya, sug'urta, axborot-kommunikatsiya xizmatlari va maishiy xizmatlarni rivojlantirish hisobiga takomillashib bormoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: —Xizmatlar sohasida faoliyat yuritishga ixtisoslashgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning tez o'zgarib turadigan bozor talablariga javob berishini ta'minlaydigan zamonaviy tuzilmalarini shakllantirishda yangi ish o'rinlarini tashkil qilishda va aholi daromadlarini oshirishda qanchalik o'ta muxim rol o'ynashini albatta chuqur anglashimiz zarur. Jahon iqtisodiyotidagi o'zgarishlar O'zbekiston iqtisodiyotining boshqa sohalari singari xizmatlar sohasini ham ustuvor darajada rivojlantirishni taqozo etmoqda. Shu sababli mamlakatimizda islohatlarni chuqurlashtirish sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Xizmat ko'rsatish sohasini mamlakatimiz ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarbligicha qolmoqda. Shu bilan birga, mazkur tarmoqni rivojlantirishdagi jiddiy kamchiliklarni ta'kidlash joiz, xususan, bandlikni oshirish va aholi daromadlarini ko'paytirish hamda mahalliy byudjetlarni to'ldirishning istiqbolli manbai sifatida xizmat ko'rsatish imkoniyatlaridan kam foydalanilmoqda. Xizmatlar ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratish, uning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish, xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarida band bo'lganlar sonini ko'paytirish va shu asosda aholi daromadlarini oshirish hamda ichki iste'mol bozorini zamonaviy, sifatli turli-tuman xizmat turlari bilan to'ldirish bilan bog'liq muammolarni mavjudligi va mazkur holatlar tanlangan mavzuni hozirgi sharoitda dolzarbligi va muhimligini ko'rsatib bermoqda.

1-jadval.Risk turlari.

Asosiy ko'rsatkichlar	Aniqlash uslubi
1	2
Iqtisodiy risk	

Asosiy fondlarning chiqib ketish koeffitsiyenti (K_1)	$K_1 = \frac{ChK_{af}}{O'YQ_{af}}$; bu yerda, ChK_{af} – hisobot davrida chiqib ketgan asosiy fondlar qiymati; $O'YQ_{af}$ – hisobot davridagi asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati
Hududdagi har 100 ta tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri keladigan zarar ko'rib ishlayotgan korxonalar sonini ifodalovchi koeffitsiyent (K_2)	$K_2 = \frac{K_{zk}}{TS_s \cdot 100}$; bu yerda, K_{zk} – hududdagi zarar ko'rib ishlayotgan korxonalar soni; TS_s – hududdagi jami tadbirkorlik subyektlari soni.
Bozor talabining nomuvofiqlik koeffitsiyenti (K_3)	$K_3 = \frac{AS}{AD}$; bu yerda, AS – hududdagi jami taklif hajmi; AD – hududdagi jami talab hajmi.
Hisobot davridagi yoki so'nggi 5 yildagi yopilib ketgan sanoat korxonalarining hisobot davrida yoki so'nggi 5 yilda ro'yxatdan o'tgan jami sanoat korxonalari sonidagi ulushi (K_4)	$K_4 = \frac{SK_{yk}}{SK_{ro'}}$; bu yerda, SK_{yk} – hisobot davridagi yoki so'nggi 5 yildagi yopilib ketgan sanoat korxonalari soni; $SK_{ro'}$ – hisobot davridagi yoki so'nggi 5 yilda ro'yxatdan o'tgan jami sanoat korxonalari soni.
Hisobot davridagi yoki so'nggi 5 yildagi yopilib ketgan qishloq xo'jalik korxonalarining hisobot davrida yoki so'nggi 5 yilda ro'yxatdan o'tgan jami qishloq xo'jalik korxonalari sonidagi ulushi (K_5)	$K_5 = \frac{QXK_{yk}}{QXK_{ro'}}$; bu yerda, QXK_{yk} – hisobot davridagi yoki so'nggi 5 yildagi yopilib ketgan qishloq xo'jalik korxonalari soni; $QXK_{ro'}$ – hisobot davridagi yoki so'nggi 5 yilda ro'yxatdan o'tgan jami qishloq xo'jalik korxonalari soni.
Hisobot davridagi yoki so'nggi 5 yildagi yopilib ketgan savdo korxonalarining hisobot davrida yoki so'nggi 5 yilda ro'yxatdan o'tgan jami savdo korxonalari sonidagi ulushi (K_6)	$K_6 = \frac{SavK_{yk}}{SavK_{ro'}}$; bu yerda, $SavK_{yk}$ – hisobot davridagi yoki so'nggi 5 yildagi yopilib ketgan savdo korxonalari soni; $SavK_{ro'}$ – hisobot davridagi yoki so'nggi 5 yilda ro'yxatdan o'tgan jami savdo korxonalari soni.
Ijtimoiy risk	
Hududdagi ishsizlik darajasi (K_7)	$K_7 = \frac{Ishsiz_s}{IFA_s}$; bu yerda, $Ishsiz_s$ – hududdagi ishsizlar soni; IFA_s – hududdagi iqtisodiy faol aholi soni
Demografik yuklama koeffitsiyenti (K_8)	$K_8 = \frac{(M_{lyas} + M_{lyas})}{M_{LAS}}$; bu yerda, M_{lyas} – hududdagi mehnatga layoqatli yoshgacha bo'lgan aholi soni; M_{lyas} – hududdagi mehnatga layoqatli yoshdan yuqori bo'lgan aholi soni; M_{LAS} – hududdagi mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni.
Hududdagi har ming kishiga to'g'ri keladigan minimal iste'mol xarajatlari ($minIX$) dan past daromadga ega bo'lgan aholi ulushi (K_9)	$K_9 = \frac{AS_{minIX}}{AS \cdot 1000}$; bu yerda, AS_{minIX} – hududdagi $minIX$ dan past daromadga ega bo'lgan soni; AS – hududdagi jami aholi soni.
Moliyaviy risk	

Hududdagi inflyatsiya darajasi (K10)	$K_{10} = \frac{I_{INI1} - I_{INI0}}{I_{INI0}}$; bu yerda, I_{INI1} – mintaqadagi joriy davrdagi iste'mol narxlari indeksi; I_{INI0} – mintaqadagi bazis davrdagi iste'mol narxlari indeksi.
Mahalliy byudjet taqchilligini ifodalovchi ko'rsatkich (K11)	$K_{11} = \frac{BD - BX}{YaHM}$; bu yerda, BD – mahalliy byudjet daromadlari; BX – mahalliy byudjet xarajatlari; YaHM – yalpi hududiy mahsulot.
Muddati o'tgan kreditor qarzdorlikning jami kreditor qarzdorlikdagi ulushi (K12)	$K_{12} = \frac{KQ_{mo'}}{KQ_j}$; bu yerda, $KQ_{mo'}$ – muddati o'tgan kreditorlik qarzdorlik; KQ_j – jami kreditorlik qarzdorlik.
Boshqaruv riski	
Davlat xizmatlari yagona interaktiv portalida ro'yxatga kiritilmagan xizmatlarning jami davlat xizmatlaridagi ulushi (K13)	$K_{13} = \frac{DX_{rk}}{DX_j}$; bu yerda, DX_{rk} – yagona interaktiv portalda ro'yxatga kiritilmagan xizmatlar soni; DX_j – jami davlat xizmatlari soni.
Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan E-qaror yagona elektron tizimida ro'yxatdan o'tkazilmagan qarorlarning jami qabul qilingan qarorlardagi ulushi (K14)	$K_{14} = \frac{Q_{mh}}{Q_j}$; bu yerda, Q_{mh} – mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan E-qaror yagona elektron tizimida ro'yxatdan o'tkazilmagan qarorlar soni; Q_j – mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilingan jami qarorlar soni.
Davlat xaridlari elektron tizimi orqali amalga oshirilmagan davlat xaridlarining jami davlat xaridlaridagi ulushi (K15)	$K_{15} = \frac{DX_{ET}}{DX_h}$; bu yerda, DX_{ET} – Davlat xaridlari elektron tizimi orqali amalga oshirilmagan davlat xaridlari hajmi; DX_h – jami davlat xaridlari hajmi.
Ekologik risk	
Ekologik oqibatlarni bartaraf qilish va utilizatsiyalash uchun ajratilgan sarf-xarajatlarning mahsulot ishlab chiqarish xarajatlaridagi ulushi (K16)	$K_{16} = \frac{U_x}{ICh_x}$; bu yerda, U_x – ekologik oqibatlarni bartaraf qilish va utilizatsiyalash uchun ajratilgan sarf-xarajatlar miqdori; ICh_x – mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari miqdori.
Atmosferaga va atrof-muhitga chiqarilgan ekologik xavfli mahsulot va chiqindilarning fizik hajmi koeffitsiyenti (K17)	$K_{17} = \frac{Ch_{fx}}{K_E}$; bu yerda, Ch_{fx} – atmosferaga va atrof-muhitga chiqarilgan ekologik xavfli mahsulot va chiqindilarning fizik hajmi; K_E – Engel koeffitsiyenti.
Jinoiy risk	
Hududdagi har 100 ming kishiga to'g'ri keladigan jinoyatlar soni (K18)	$K_{18} = \frac{J_s}{\frac{AS}{100000}}$; bu yerda, J_s – hududdagi jinoyatlar soni; AS – hududdagi jami aholi soni.
Hududdagi har 100 ming kishiga to'g'ri keladigan iqtisodiy jinoyatlar soni (K19)	$K_{19} = \frac{IJ_s}{\frac{AS}{100000}}$; bu yerda, IJ_s – hududda amalga oshirilgan iqtisodiy jinoyatlar soni; AS – hududdagi jami aholi soni.

Hududdagi jami jinoyatlar sonida iqtisodiy jinoyatlarning ulushi (K_{20})	$K_{20} = \frac{IJS}{J_s}$; bu yerda, IJS– hududda amalga oshirilgan iqtisodiy jinoyatlar soni; J_s – hududdagi jami jinoyatlar soni.
Hududdagi jami jinoyatlar sonida avtohalokatlarning ulushi (K_{21})	$K_{21} = \frac{AH_s}{J_s}$; AH_s –hududda sodir bo‘lgan avtohalokatlar soni; J_s – hududdagi jami jinoyatlar soni.

Tadqiqotdan ko‘rinib turibdiki, xizmat ko‘rsatish tarmoqlari o‘zining tezkor rivojlanish sur‘atiga ega bo‘lishiga qaramay, ularga investitsiya jalb qilishda mavjud risklar har doim ham yetarlicha prognoz qilinmaydi. Bu esa investorlar uchun tavakkal darajasini oshiradi. Shuning uchun xizmat tarmoqlarida zamonaviy risk baholash va prognozlash mexanizmlarini joriy qilish dolzarb masalaga aylanmoqda. Xususan:

Bozor risklarini kamaytirish uchun marketing tahlillarini kuchaytirish, mijozlar ehtiyojlarini real vaqt rejimida o‘rganish zarur. Huquqiy risklarni kamaytirish uchun normativ-huquqiy hujjatlarni barqarorlashtirish, soliq imtiyozlarini taqdim etish tavsiya etiladi. Operatsion va texnologik risklarni bartaraf etishda zamonaviy boshqaruv texnologiyalaridan (ERP, CRM tizimlari) foydalanish ijobiy samara beradi.

Bundan tashqari, risklarni prognoz qilishda **sun‘iy intellekt va mashinali o‘rganish algoritmlaridan** foydalanish kelajakda yanada aniq natijalar olish imkonini yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xizmat ko‘rsatish tarmoqlariga investitsiya jalb qilishda risklarni prognoz qilish — bu barqaror va samarali investitsiya siyosatining ajralmas qismidir. Bir mamlakat milliy bozoridan tashqariga chiqish bozor talabining o‘zgarishini kamaytirishi mumkin hamda unga mos ravishda mijozlarning ko‘paytirish, garchi bir yoki bir nechta mijozni yo‘qotilgan taqdirda ham loyiha (faoliyat)ning zaifligini kamaytiradi. Shuni ta’kidlash kerakki, har qanday aksiyalar, tovarlar, xizmatlar, mijozlar va boshqalar doim ham riskni kamaytirishga olib kelmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Шарп У.Ф., Александер Г.Дж., Бейли Дж.В. Инвестиции. – пер. с англ. – М.: ИНФРА-М, 2001. – 1028 с.
2. Тумусов Ф.С. Инвестиционный потенциал региона: Теория. Проблемы. Практика. М.: Экономика, 1999. 267 с.
3. Новиков А.В. Инвестиционная привлекательность региона. Новосибирск: НГАЭиУ, 2001. 141 с.
4. Бланк И.А. Основы инвестиционного менеджмента. СПб.: Ника-Центр, 2005. 536 с.
5. Bruno, R.L.; Campos, N.F. Reexamining the Conditional Effect of Foreign Direct Investment; IZA Discussion Paper No. 7458; Institute for the Study of Labor: Bonn, Germany, 2013. Available online at: <https://ssrn.com/abstract=2287068>. (accessed on 24 September 2019)
6. Kemeny, T. Does foreign direct investment drive technological upgrading? World Dev. 2010, 38, 1543–1554.
7. Peres, M.; Ameer, W.; Xu, H. The impact of institutional quality on foreign direct investment inflows: Evidence for developed and developing countries. Econ. Res. 2018, 31, 626–644, doi:10.1080/1331677X.2018.1438906.